



journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>

THE ROLE OF PHILOSOPHY AND MATHEMATICS IN BROADENING THE WORLDVIEW OF YOUTH

Farrukh Abdurakhimovich Nabiyeu

Senior Teacher of Mathematics at the Department of
Exact and Natural Sciences Methodology

Namangan Regional Pedagogical Excellence Center

Researcher at Namangan State University

e-mail: f_nabiyeu@list.ru

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: youth, mathematics, philosophy, logical, critical, thinking.

Received: 14.09.25

Accepted: 15.09.25

Published: 16.09.25

Abstract: Philosophy and mathematics are among the oldest and most fundamental foundations of human thought. Their roots trace back to the cultures of ancient East and Greece. Both originate from humanity's striving to understand the universe, seek order and laws, and comprehend the essence of life. The role of philosophy in shaping the worldview of youth. Philosophy has long defined the direction of human thinking. It develops critical thinking.

YOSHLARNING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISHDA FALSAFA VA MATEMATIKANING O'RNI

Farrux Abduraximovich Nabiyeu

Namangan viloyat pedagogic mahurat markazi Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası
matematika fani katta o'qituvchisi

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

e-mail: f_nabiyeu@list.ru

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: yoshlar, matematika, falsafa, mantiqiy, tanqidiy, fikrlash.

Annotatsiya: Falsafa va matematika insoniyat tafakkurining eng qadimiy va asosiy poydevorlaridan biridir. Ularning ildizlari qadimgi Sharq va Yunoniston madaniyatiga borib taqaladi. Har ikkisi ham insonning olamni anglash, tartib va qonuniyatlarni izlash, hayotning mohiyatini tushunishga intilishidan kelib chiqqan. Falsafaning yoshlar

dunyoqarashidagi o'zni. Falsafa qadimdan insoniyat tafakkurining yo'nalishini belgilab kelmoqda. U Tanqidiy tafakkurni shakllantiradi.

РОЛЬ ФИЛОСОФИИ И МАТЕМАТИКИ В РАСШИРЕНИИ МИРОВОЗЗРЕНИЯ МОЛОДЕЖИ

Фаррух Абдурахимович Набиев

Старший преподаватель математики кафедры методики точных и естественных наук Наманганского областного педагогического центра мастерства

Исследователь Наманганского государственного университета

e-mail: f_nabiyev@list.ru

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	математика, философия, критическое мышление.
Аннотация:	Философия и математика — одни из древнейших и основных основ человеческого мышления. Их корни уходят в культуры древнего Востока и Греции. Обе дисциплины возникли из стремления человека понять мир, искать порядок и законы, осознать суть жизни. Роль философии в формировании мировоззрения молодежи. Философия давно определяет направление человеческого мышления. Она развивает критическое мышление.

Kirish. Bugun yoshlar hayoti va kamoloti bilan bog'liq muammolar barchada birdek mas'ullik hissini oshirish, o'z oldiga yangi maqsad va rejalarni belgilab olishda muhim omillardan biriga aylandi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar tashkiloti sessiyasidagi nutqlarida bugun dunyo yoshlari son jihatidan insoniyat tarixidagi eng yirik avlod bo'lib, afsuski, ekstremistik faoliyat va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning aksariyati voyaga etmagan yoshlar tomonidan sodir etilayotgani qayd etib o'tildi. Bu qatlam vakillari bilan bog'liq masalalar nafaqat O'zbekiston balki butun hamjamiyat oldidagi muhim muammolardan biri bo'lib turganligini ko'rsatmoqda. Globallashuv jarayonlarida bizning madaniyatimiz, qadriyatlarimiz va ozlarini Uchinchi dunyo mamalakatlari deb atovchi Garb madaniyati bilan toqnashadi, natijada moslashish va tanlanish jarayoni boshlanadi. Muammo esa bu tanlanishda milliy xarakterimiz globallashuv jarayonlarining sinovlariga bardosh berish yoki bermasligidadir.

Dunyoqarash – insonning hayotida shakllanadigan sub'ektiv voqelikdik. Dunyoqarash o'z ichiga bilim, amaliy faoliyat, ishonch-e'tiqod, his-tuyg'ularni qamrab oladi. Masalan, yoshlar o'zlarining dunyoqarashini real hayotga tatbiq etish strategiyalarida koradi. Dunyoqarashni shakllantirish nafaqat yoshga, balki uni tarbiyalaydigan ijtimoiy-tarixiy shart sharoitlarga bevosita

bog'liq. Muayyan qadriyatlar, bilimlar va xulq-atvor modellarini oz dunyoqarashiga singdirish orqali, inson ularni oz hayotining mazmuni sifatida qabul qiladi va ijtimoiy subekt sifatida harakat qiladi. Talim (tarbiya va oqitish) yoshlarning dunyoqarashiga, birinchi navbatda, tafakkurini shakllantirishga kuchli va bazan hal qiluvchi tasir krsatadi. Shunday qilib, haqiqiy ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga qoshimcha ravishda, talim va mafkura yoshlar dunyoqarashini shakllantirishning eng kuchli vositalaridir.

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlar tafakkurini yuksaltirish, ularda mustaqil fikrlash va mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Shu jarayonda falsafa va matematikaning ahamiyati beqiyosdir.

Yoshlarning dunyoqarashi ularning tafakkur darajasi, intellektual salohiyati va hayotga bo'lgan qarashlarini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Zamonaviy dunyoda yoshlarda keng dunyoqarashni shakllantirish ijtimoiy-ma'naviy rivojlanishning eng muhim vazifalaridan sanaladi. Bu jarayonda falsafa va matematika fanlarining alohida o'rni bor. Falsafa insonni umumiy fikrlashga, borliqni mohiyatan anglashga chorlaydi, matematika esa mantiqiy tafakkurni rivojlantirib, zamonaviy ilmiy va texnologik taraqqiyotning poydevorini yaratadi.

Falsafa va matematika insoniyat tafakkurining eng qadimiy va asosiy poydevorlaridan biridir. Ularning ildizlari qadimgi Sharq va Yunoniston madaniyatiga borib taqaladi. Har ikkisi ham insonning olamni anglash, tartib va qonuniyatlarni izlash, hayotning mohiyatini tushunishga intilishidan kelib chiqqan.

Falsafaning yoshlar dunyoqarashidagi o'rni. Falsafa qadimdan insoniyat tafakkurining yo'nalishini belgilab kelmoqda. U Tanqidiy tafakkurni shakllan-tiradi. Yoshlarni mavjud qarashlarni tahlil qilish, ularning kuchli va zaif tomonlarini anglashga undaydi. Qadriyatlarni anglashga yordam beradi. Insonni hayot ma'nosi, adolat, erkinlik, haqiqat kabi tushunchalar ustida fikrlashga chorlaydi. Dunyoqarashni kengaytiradi. Turli falsafiy oqimlar va g'oyalar bilan tanishish yoshlarni bag'rikenglikka, madaniy hamda ijtimoiy xilma-xillikka ochiq bo'lishga o'rgatadi.

Matematik tafakkurning ahamiyati. Matematikada yig'indi, ikki yoki undan ortiq sonning birlashmasi sifatida ko'riladi, lekin uning falsafiy ahamiyati, hayotdagi qoldiqlar va ko'rsatkichlarni tushunishda katta rol o'ynaydi. Yig'indilar falsafasini o'rganish orqali biz insoniyatning turli sohalarida matematik qonuniyatlarni, ularning natijalari va qoldiqlari haqida ko'proq bilib olishimiz mumkin. Yig'indilar nafaqat matematika, balki munosabatlar, iqtisodiyot, psixologiya va falsafada ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, hayotimizdagi har bir narsani yig'indilarga bo'lishimiz yoki ulardan yig'ishimiz mumkin. Kattalarning yoshi, odamlar o'rtasidagi munosabatlar, oilaviy daromad va sarf-xarajatlar—bularning barchasi yig'indilar bilan bog'liq. Har bir insonning his-tuyg'ulari, bekorchiliklari yoki orzulari ham yig'indilardan iborat.

Bizning hayotimizda yuz berayotgan har bir voqea, bir-biriga bo'ysunuvchi va bog'langan yig'indilar zanjirini hosil qiladi. Matematika va tadqiqotlar orqali yig'indilar, bizni o'zimizni va atrofdagilarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Masalan, biz insonlarning ijtimoiy qimmatbaho faoliyatlarida qanday qilib mavjud resurslarni hajmini, vaqtni yoki energiyani qanday sarflashni o'rganamiz. Bunday o'rganishlarimiz orqali xizmatlar, mahsulotlar va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlarni qiyoslaymiz, ularning yig'indisini hisoblaymiz, va oxirida natijalarni qabul qilamiz. Yig'indilar falsafasi — bu matematikaning qiziqarli va muhim qismidir.

Yig'indilar falsafasi ko'plab sohalarda, shu jumladan falsafa, ijtimoiy fanlar, iqtisodiyot va boshqa yo'nalishlarda qo'llaniladi. Masalan, iqtisodiyotda ishlab chiqarishning yig'indisi, iste'molchi imkoniyatlari va xizmatlar taqsimoti orqali xarajatlarvadaromadlar yig'indisini ko'rib chiqamiz. Bu hech qanday shubha yo'qki, yig'indilar iqtisodiy nazariya uchun asosiy hisoblanadi, chunki uzarni tashkil etish, resurslarni optimal taqsimlash va yaxshilash uchun muhimdir. Bundan tashqari, yig'indilar so'nggi ilmlar o'z sohasida ham kata talqinlar va fikrlar berdilar. Falsafada, yig'indilar odatda fikrlar, g'oyalar va qarashlar doirasini anglatadi. Har bir g'oya, har bir fikr bir yoki bir necha qismi bilan boshqa fikrlar bilan birlashishi orqali yangi qarashlarni hosil qiladi. Bu yerda yig'indilar argumetlar va falsafiy mushohadalar orqali har qanday murakkab muammolarni hal qilishda yordam beradi. Yig'indilar qoldiqlari esa alohida e'tiborga sazovor. Hayotimizda ko'p miqdorda qoldiqlar mavjud bo'lib, ularni matematik jihatdan baholash va tanqidiy tahlil qilishni taqozo etadi. Har bir qoldiq —bu yangi imkoniyatlar, yangi g'oyalarning o'sishi va yaxshilanishi yo'lidagi bir qadam.

Yig'indilar falsafasi bizga o'zaro aloqalarni tushunishga, resurslarni samarali boshqarishga va yangi imkoniyatlarni kashf etishga yordam beradi. Bu nafaqat matematik bilimlar, balki hayotdagi tajribalar va qiyinchiliklar orqali rivojlanishning ustunligini keltirib chiqaradi. Yig'indilar falsafasi matematik qonuniyatlardan tashqari turli sohalarda muhim ahamiyatga ega bo'lib, hayotdagi qoldiqlarni, imkoniyatlarni va yangiliklarni anglashda katta rol o'ynaydi.

Yig'indilar va qoldiqlar haqida chuqurroq fikrlash, bizning hayotimizda mukammallik, o'z-o'zini anglash va taraqqiyotga erishishimizga yordam beradi.

Matematika orqali biz nafaqat sonlarni, balki hayotdagi ko'plab muammolarni hal qilish strategiyalarini ham o'rganamiz. Qoldiqlarning qadri shundaki, ular bizga hayotiy vaziyatlarni aniqlash va belgilash imkonini beradi. Misol uchun, shaxsiy xotira va his-tuyg'ularimizni o'rganish orqali, nafaqat o'zimizni, balki boshqa insonlarni ham yaxshiroq tushuna olamiz. Bundan tashqari, yig'indilar falsafasi zamonaviy hayotda qarorlar qabul qilish, strategik rejalashtirish va ijtimoiy munosabatlarni boshqarish uchun muhimdir.

Ushbu qoldiqlar hayotdagi muammolarni ko‘rish va hal qilishda yordam beradi. Shunday qilib, matematik qoldiqlarning hayotdagi qadri faqat raqamlar bilan cheklanmay, balki insoniy hayotning chuqurliklarini ham o‘z ichiga oladi.

Matematika yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishda muhim intellektual vositadir. Matematika mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Matematik mashqlar va masalalar orqali yoshlar tizimli va izchil fikrlashga o‘rganadi. Matematika texnologik tafakkurni shakllantiradi. Axborot texnologiyalari, sun‘iy intellekt, iqtisodiy modellashtirish kabi sohalar matematik bilimlarga asoslanadi.

Matematika muammolarni hal qilish ko‘nikmasini oshiradi. Matematika sabr-toqat, qat‘iyat va muammoga bosqichma-bosqich yondashishni tarbiyalaydi.

Falsafa va matematikaning uzviy bog‘liqligi. Matematika o‘z tabiatiga ko‘ra aniq va mantiqiy fan hisoblanadi. U raqamlar, shakllar, nisbatlar va o‘lchovlar orqali dunyoni ifodalaydi. Falsafa esa insonning mavjudot, bilim, axloq, haqiqat va qadriyatlar haqidagi umumiy qarashlarini shakllantiradi. Shunday bo‘lsada, bu ikki soha bir-biridan ajralmagan holda rivojlanib kelgan. Masalan, qadimgi yunon faylasufi Platon matematika bilimini falsafiy tafakkurning eng yuqori darajasi deb baholagan. Aristotel esa mantiqni falsafiy tafakkur uchun zarur vosita sifatida ko‘rib, uni matematik metodlar bilan uyg‘unlashtirgan.

Matematika falsafaga aniq isbotlash va dalillash imkoniyatini berdi. Falsafa esa matematikaning maqsad va ahamiyatini tushuntirish, uni inson hayoti bilan bog‘lashda muhim rol o‘ynadi. Masalan, Rene Dekart geometriyani falsafiy metod sifatida qo‘llab, “Men o‘ylayman, demak, mavjudman” degan mashhur g‘oyasini mantiqiy asoslashga intildi.

Bugungi kunda ham matematika va falsafa bir-birini to‘ldirib kelmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, sun‘iy intellekt, kvant mexanikasi kabi yo‘nalishlar rivojida falsafiy savollar muhim ahamiyat kasb etadi. “Bilimning chegarasi qayerda tugaydi?”, “Matematika inson tafakkurining mahsulimi yoki tabiat qonunlarining o‘ziga xos tili?” kabi savollar hozir ham dolzarbdir. Tarixiy jarayonda falsafa va matematika bir-biridan ajralmagan holda rivojlangan. Masalan, Pifagor va Platon matematikaning falsafiy asoslarini ishlab chiqqan, Aristotel mantiqiy tafakkurni falsafaning markaziy qismi sifatida qaragan, Yangi davr faylasuflari (Dekart, Leybnits, Kant) matematik tafakkur va falsafiy qarashlarni uyg‘unlashtirgan.

Falsafa va matematikaning uyg‘unligi. Har ikkisi tafakkurni tarbiyalaydi. Falsafa – keng dunyoqarash va tanqidiy fikrni, matematika esa aniq mantiq va isbotni shakllantiradi. Insonni mukammal fikrlashga o‘rgatadi. Falsafiy savollar orqali “nega?”, matematik yondashuv orqali esa “qanday?” degan masalalarga javob topiladi. Falsafiy g‘oyalar va matematik modellar uyg‘unlashganda yangilik yaratish, ijodiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Xulosa. Falsafa va matematikaning uyg'unligi asosida yoshlar tafakkurini yuksaltirishda quyidagi natijalarga erishish maqsadga muvofiqdir. Masalan, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyati kuchayadi, hayotiy muammolarga ilmiy va mantiqiy yondashuv shakllanadi, qaror qabul qilishda shoshqaloqlik emas, balki chuqur tahlil qilish odati rivojlanadi, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'sha oladigan ijodkor, ma'naviy va intellektual salohiyatli avlod yetishib chiqadi.

Bugungi kunda ham falsafa insoniyat tafakkurining umumiy yo'nalishini belgilasa, matematika uni aniq va dalillarga asoslangan shaklda amalga oshirish imkonini bermoqda.

Yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishda falsafa va matematika uyg'un holda alohida ahamiyat kasb etadi. Falsafa yoshlarni insoniy qadriyatlarni chuqur anglashga, mustaqil va tanqidiy fikrlashga o'rgatsa, matematika ularni mantiqiy, tizimli va ilmiy asoslangan qaror qabul qilishga tayyorlaydi. Shu bois ta'lim jarayonida ushbu ikki fan uyg'un tarzda o'qitilishi yoshlarning barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aristotel. Metafizika. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
2. Platon. Davlat. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005.
3. Descartes R. Aqlni boshqarish qoidalari. Moskva: Mysl, 1994.
4. Kant I. Sof aql tanqidi. Toshkent: O'zbekiston, 2007.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
6. Abdullayev, M. (2020). "Matematika va hayot: nazariy va amaliy jihatlar." Tashkent: Fan.34-bet
7. Isroilov, S. (2021). "Yig'indilar falsafasi va uning ta'siri." Samarkand: O'zbekiston. 67-bet
8. Karimov, R. (2019). "Matematika va ijodkorlik." Tashkent: Ma'rifat. 78-bet